

IQTISODIY O'SISHNING AHOLO SAVODXONLIGI BILAN ALOQADORLIGI

Gulzoda Olimova Qodirjon qizi

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

"Iqtisodiyot" fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi 3-kurs talabasi

Gulzodabegimolimova@gmail.com

+998884733933

Annotatsiya. Odatda har qanday mamlakatda yuqori demografik sur'at, aholi soni va nikohlarning yuqori tezlikda ortib borishi uning iqtisodiy parametrlariga bosimni oshirish bilan birga, ushbu yo'nalishda qator muammolarni vujudga keltirishi mumkin. Demografik jarayonlarning ijtimoiy sohalarga ta'siri tahlil qilinganda, ularning deyarli barchasida O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bog'liq jihatlar ishtirok etganini, ya'ni har qanday ijtimoiy sohalardagi infratuzilmalarni yaratish, yanada takomillashtirish birinchi galda aholi soni ortishidan kelib chiqib amalga oshirilsada, oxir-oqibat mamlakat iqtisodiyotga ta'siri ko'zga tashlanadi.

Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida aholi savdoxonligi va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri, uning o'rtacha bog'liqlik darajasini o'rganish va milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish bosqichida aholi savdoxonligining o'zgartirishlarini empirik tarzda tahlil qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Demografik o'zgarishlar, o'sish, tabiiy kapital, inson kapitali, qarish, ortiqcha ishchi kuchi, yosh mehnat resurslari, xorijiy investitsiya, O'zbekiston-2030, 50 ming ishchi migrant, o'sish surati.

RELATIONSHIP BETWEEN POPULATION GROWTH AND ECONOMIC DEVELOPMENT

Annotation. Typically, in any country, the high demographic rate, population size, and rapid increase in consumption exert pressure on its economic parameters. When analyzing the impact of demographic processes on social spheres, it becomes evident that they are closely related to the development of Uzbekistan's economy, meaning that despite the initial focus on increasing population size leading to the creation of socio-economic infrastructure in various fields, ultimately, the country's economy is affected.

This article aims to study the relationship between population growth and economic development in Uzbekistan, analyzing the correlation between population growth and economic growth and empirically examining changes in population growth in Uzbekistan's new economic development.

Key words: Demographic changes, growth, natural capital, human capital, consumption, excess labor force, youth labor resources, foreign investment, Uzbekistan-2030, 50 thousand migrant workers, growth rate.

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ РОСТОМ НАСЕЛЕНИЯ И ЭКОНОМИЧЕСКИМ РАЗВИТИЕМ

Аннотация. Обычно в любой стране высокий демографический уровень, размер населения и быстрый рост потребления оказывают давление на ее экономические показатели. Анализируя влияние демографических процессов на социальные сферы, становится ясно, что они тесно связаны с развитием экономики Узбекистана, что означает, что несмотря на первоначальное внимание на увеличение численности населения, приводящее к созданию социально-экономической инфраструктуры в различных областях, в конечном итоге экономика страны страдает.

Цель данной статьи - изучить взаимосвязь между ростом населения и экономическим развитием в Узбекистане, проанализировать корреляцию между ростом населения и экономическим ростом и эмпирически исследовать изменения в росте населения в новом экономическом развитии Узбекистана.

Ключевые слова: Демографические изменения, рост, природный капитал, человеческий капитал, потребление, избыточная рабочая сила, молодежные трудовые ресурсы, иностранные инвестиции, Узбекистан-2030, 50 тысяч мигрантов, темп роста. Tobora globallashib borayotgan hozirgi davrda jahon miqyosida demografik o'zgarishlarning katta iqtisodiy o'zgarishlarga olib kelayotgani sir emas. Aholi soni, o'sishi, yosh tarkibi va geografik joylashuvi insonning hayotini tizimli ko'rsatuvchi xususiyatlardir va bu esa iqtisodiyotga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishning ortiqcha darajada o'sishi va yosh tarkibidagi o'zgarishlar ishchilar sonini tezlik bilan o'sishiga olib keladi, shunday qilib, katta ahamiyatga ega bo'lgan mahsulot o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantiradi. Shu bilan bir qatorda, dunyoning qator mamlakatlari, birinchi galda iqtisodiyoti sust rivojlangan davlatlar aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishi, bunga teskari proporsional tarzda iqtisodiyot rivojlanishi past bo'lganligi bilan ajralib turadi. Osiyoning janubiy, Afrikaning Sahroi Kabirdan janubda joylashgan qator mamlakatlarda ana shu jihatlarni ko'rish mumkin. Lekin bularning barchasiga qaramay, agar mamlakat to'g'ri va samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borsa, demografik jarayonlar, jumladan, aholi sonining ortishidan ijobiy natija bo'lishi ham mumkin. Bunga misol tariqasida inson kapitalidan samarali foydalanish orqali demografik bosimdan ijobiy natija chiqarish mumkin. Ma'lumot uchun, Juhon bankining 192

mamlakatda o‘tkazgan tadqiqotlariga ko‘ra, zamonaviy iqtisodiyotda jismoniy kapital umumiy boylikning 16 foizini, tabiiy kapital 20 foizni, inson kapitali esa 64 foizni tashkil etadi. Yaponiya, Germaniya va Shvesiyada inson kapitali ulushi 80 foizga yetadi, Rossiyada esa atigi 14 foizni tashkil etadi. Yuqorida qayd etilgan iqtisodiyoti sust rivojlangan mamlakatlarda esa undan ham past daraja saqlanib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi: Birinchi galda inson kapitalidan oqilona foydalanish, ta’lim tizimini muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yish va eng muhimi to‘g‘ri iqtisodiy rivojlanish yo‘lini tanlaganliklari iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadi bo‘lib kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi: Ma’lumki, har bir mamlakatda mavjud mehnat bozori nafaqat milliy, balki boshqa mamlakatlar iqtisodiyotining turli tarmoqlarini mehnat resurslari bilan ta’minlaydigan alohida mexanizmdir. Ushbu bozorda ishtirok etuvchilar, ayniqsa, ishchi kuchlarining professional sifatlari, moslashuvchanligi hamda yuqori sifatga egaligi muhim o‘rin tutadi, chunki bu bevosita mamlakat va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omildir. Unda talab va taklif o‘rtasida o‘ziga xos qonun mavjud bo‘lib, iqtisodiyotning qay tartibda rivojlanishi yoki o‘zgarishi bozor ishtirokchilarining dastavval sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir etadi. O‘zbekiston mehnat bozori ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Unda nisbatan demografik “yosh” aholi mavjudligi, tug‘ilishlar soni va sur’ati ortib borayotgan va o‘lim sur’ati kamayish tendensiyasi kuzatilayotgan aholiga egaligi sababli mehnat bozorida taklif miqdori talabga nisbatan yuqoriligidicha qolayotgani bilan tavsiflanadi. Har yili demografik siljishlar tufayli mehnat bozoriga 500 mingdan ortiq yangi mehnat resurslari kirib keladi. Aholining pensiya yoshiga yetishi, migratsiya, o‘lim va boshqa omillar sababli mehnat resurslari safidan chiqayotganlarga nisbatan deyarli ikki baravar katta bo‘lgan yuqoridagi raqamlar mamlakat iqtisodiyotiga ham bosimni vujudga keltiradi. Shu o‘rinda hozirgi mehnat bozoriga kirib kelayotgan yosh guruhlari 2000-yillar boshlarida tug‘ilganligini, bu davr esa mustaqillik yillarda tug‘ilganlar sonining nisbatan eng past darajaga (yiliga 500-550 ming atrofida) ega bo‘lgan davr ekanligi bilan ajralib turadi. Taqqoslash uchun: oxirgi 2-3 yilda yiliga 700 mingdan ortiq tug‘ilishlar qayd etilmoqda. Bu holat agar amaldagi demografik jarayonlar sur’ati saqlanib qolsa yoki boshqa fors-major holatlar qayd etilmasa, 2030 yildan keyin mamlakat mehnat bozoriga bo‘ladigan bosim hozirgiga nisbatan kamida 50 %ga yuqori bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot natijalari. O‘zbekiston mehnat bozoridagi asosiy ishtirokchilardan biri, mamlakat va fuqarolarning shaxsiy budgeti shakllanishiga

katta ta'sir etayotgan qatlam – xorijda faoliyatini olib borayotgan mehnat migrantlaridir. Ularning soni va o'sish sur'atlari doimiy ortib bormoqda. Bu esa ko'plab rivojlangan mamlakatlardan O'zbekiston ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojlar ortishidan ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida, joriy yilda tashqi mehnat migratsiyasi agentligi Germaniyada o'zbekistonliklar uchun 50 ming bo'sh ish o'rni mavjudligi haqida e'lon berdi. Fuqarolar hamshiralik, haydovchilik kasblari, shuningdek, mehmonxona, restoran, turizm va boshqa sohalarda ishlashi mumkin. Shunday ekan, jismoniy shaxslarning chet eldan yuborayotgan pul o'tkazmalari sur'atidagi o'zgarishlar ketma-ket ortib kelganini ta'kidlash lozim, hattoki 2020-yilda sodir bo'lgan pandemiya ham bu sur'atning pasayishiga sabab bo'lindi. O'zbekistonda davlat YaIMga nisbatan bu miqdor tobora oshib borayotganligi, jami daromadlar tarkibida esa undan ham yuqoriligi (2020 yilda YaIMning 10%, jami daromadlar tarkibida 14,5 % atrofida) mamlakatda ortiqcha ishchi kuchidan aynan ushbu yo'nalishda samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Mehnat migrantlarining asosiy faoliyat olib boradigan mamlakatlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikalari bo'lib kelyotgan bo'lsa-da, bandlikka mas'ul tashkilotlar tomonidan ushbu mamlakatlar geografiyasi tobora kengaytirilmoqda, Koreya Respublikasi, Turkiya, BAA, Yaponiya, Sharqiy Yevropa mamlakatlari mehnat bozorlarida ham o'zbekistonlik mehnat resurslariga talab ortib bormoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston mehnat bozori nisbatan "ortiqcha" ishchi kuchiga va "yosh" mehnat resurslariga egaligi bilan ajralib turadi. Bozordagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun faol bandlik siyosati olib borilishi, buning uchun esa quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

yaratilayotgan yangi ish o'rnlari sonini emas, sifatini oshirishga e'tibor qaratish lozim. Bundan bir-necha yil avvalgi bandlik dasturlariga e'tibor qaratsak, har yili deyarli 1 mln. ish o'rni tashkil etilishi belgilanar, biroq ishsizlik pasaymas, ish o'rnlariaga talab yuqoriligidcha qolgan edi;

mehnat migrantlarini ijtimoiy, huquqiy va psixologik qo'llab-quvvatlash tadbirlarini yanada kengaytirish, ular faoliyat olib boradigan mamlakatlar geografiyasini kengaytirish, eng muhimi, o'z oilasiga kiritayotgan daromadlaridan to'g'ri va oqilona foydalanishiga tavsiyalar berish choralarini ko'rish lozim;

mamlakatda ishsizlar, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlar bandligi darajasini oshirish bo'yicha yangi mexanizmlarni ko'chaytirish kerak. Misol uchun, amaldagi ishsizlarga beriladigan subsidiya va grantlar ajratish tizimini ularga ajratiladigan pul miqdorini oshirish orqali yanada rivojlantirish, ishsizlik nafaqasi ajratilayotgan fuqarolarning ushbu nafaqaga bog'lanib qolishining

oldini olish va ularni o‘z doimiy ish o‘rnini topshiga ko‘maklashish choralarini ko‘rish maqsadga muvofiqdir;

aholining norasmiy sektorda ishlovchi qatlamini rasmiy sektorga ko‘proq jalgan etish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish choralarini ko‘rish tavsiya etiladi. Bunda o‘zini o‘zi band qilish mexanizmi yuqori samara berishini unutmaslik lozim;

bandlik sohasida amalga oshiriladigan barcha dasturlar, normativ hujjatlarda aholi soni o‘sishi, demografik “to‘lqinlar”, yosh guruhlaridagi o‘zgarishlar va boshqa omillarni to‘liq inobatga olish lozim.

Oxirgi yillarda qator oziq-ovqat mahsulotlariga aholi soni va takribi o‘zgarishidan kelib chiqib talab ortib bormoqda. Jumladan, birlamchi mahsulotlar – un va un mahsulotlari, o‘simlik yog‘i, go‘sht, sut va boshq mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda aholi talabini qondirish ustuvor vazifalardan bo‘lib qolmoqda. Mamlakat hukumati tomonidan oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash va ichki bozorda narx-navo barqarorligini saqlash, dunyo bozorida to‘xtovsiz narxi oshib borayotgan mahsulotlarni ichki bozorda yetarli zahirasini yaratishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Buning uchun ba’zi mahsulotlar (o‘simlik yog‘i, go‘sht va boshq.)ning mamlakatimizga olib kirilishga turli imtiyozlar qo‘llab, bojxona va boshqa to‘lovlardan ozod qilish, ta’mintonchi kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash kabi ta’sirchan choralar ko‘rilmoxda. So‘nggi yillarda aholining birlamchi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabi yuqori darajada ortib borayotganligi sababli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni mamlakatda qayta ishslash, shuningdek, ichki iste’molda yetarli bo‘lmagan mahsulotlar importini yanada oshirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrdagi 841-sun qarori bilan tasdiqlangan 2030 yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarda belgilangan 2-maqsad, ya’ni “oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish” bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralar tomonidan qator vazifa va indikatorlarni ta’minalash ko‘zda tutilgan. Ushbu vazifalarni alohida ta’kidlash lozim. Chunki ularda to‘g‘ridan to‘g‘ri aholining soni va yosh guruhlariga tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlariga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan masalalar o‘rin egallagan. Aholining to‘yib ovqatlanmasligi, sifatlari va balanslashgan oziq-ovqatlarni iste’mol qilmasligi uning, ayniqsa bolalar, o‘smirlar va homilador ayollarning jismoniy holatiga salbiy ta’sir etishini unutmaslik lozim. Hujjatning 2.2-vazifasida 2030 yilgacha to‘yib ovqat yemaslikning barcha shakllariga barham berish, jumladan, 2025 yilgacha besh

yoshgacha bo‘lgan bolalarning fiziologik holati va vaznidagi salbiy holatlarga qarshi kurashishga oid xalqaro darajada kelishilgan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish hamda o‘s米尔 qizlar, homilador va emizikli ayollar, keksa odamlarning ovqatlanishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish belgilangan bo‘lib, bu yuqorida ta’kidlangan demografik jarayonlarga birlamchi ta’sir etuvchi omillardan sanaladi.

XULOSA. Demografik jarayonlarning iqtisodiy taraqqiyot bilan o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilganda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining barcha tarmoqlarida u yoki bu ko‘rinishda demografik jarayonlar bilan bog‘liqlik mavjudligini unutmaslik lozim.

Ikkinchidan, mamlakatning YaIMi, iqtisodiy o‘sishi va boshqa iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblaganda, turli reytinglarni yuritayotganda albatta aholi soni va tarkibi muhim rol o‘ynaydi, aholi sonining ortishi yoki kamayishi yuqoridagi parametrlarda ham ko‘rinishi mumkin.

Uchinchidan, mamlakat yoki hududlarning ichki budjetini shakllantirish, tashqi qarzlar yoki xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda hududlarning demografik holatini inobatga olish kerak.

To‘rtinchidan, aholi bandligini oshirish, uy-joy, infratuzilmalar, oziq-ovqat va boshqa zurur ehtiyojlarini ta’minalash chora-tadbirlari hamda rejalashtirish dasturlarini ishlab chiqishda albatta, aholi soni va tarkibi, shuningdek, demografik jarayonlarning borishini inobatga olish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/10/13/demography/>
- 2 Moliyaviy savodxonlik asoslari A.V.Vahobov, Sh.A.Toshmatov, N.X. Xay-darov - Toshkent 2013,
3. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minalash to‘risida”gi qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi.
5. “Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy konvensiyalari va tavsiyalari” /Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi /Toshkent, 2008
6. Yo.Abdullayev Statistika nazariyasi. Darslik-Toshkent “O‘qituvchi” 2002
7. H.Shodiyev, I.Habibullayev Statistika. Darslik-Toshkent “Iqtisod-Moliya”2019.
8. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O‘quv qo‘llanma. - T.: Noshir, 2011.
9. Бедный М.С. Здоровье и продолжительность жизни.-М.: Знание,1990.
10. Вандескрик К. Демографический анализ. - М.: ИНФРА-М, 2005

11. <https://www.stat.uz>- O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.
12. <https://population.un.org/wpp/Download/Standard/Interpolated/> - BMT ning Aholishunoslik bo‘limi rasmiy sayti.
13. Фазлиев, Ж. Ш. (2023, October). ТОМЧИЛАТИБ СУФОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ СУФОРИЛГАН ОЛМА БОҒЛАРИНИНГ ТУПРОҚ АГРОКИМЁВИЙ КЎРСАТГИЧЛАРИ. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 11, pp. 19-23).
14. Фазлиев, Ж. Ш. (2019). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (4).
15. Xudayev, I. J., & Tojiyev, S. M. (2023). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G ‘O ‘ZANI SUG ‘ORISH TEKNOLOGIYASI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 514-519).
16. Худайев, И., & Фазлиев, Ж. ТЕХНОЛОГИЯ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ САДОВ И ВИНОГРАДНИКОВ. JURNALI, 176
17. Fazliyev, J. (2017). Drip irrigation technology in gardens. Интернаука. Science Journal, 7(11).
18. Fazliyev, J. (2018). Modern irrigation methods for gardens. Science, 22, 24-26.
19. Фазлиев, Ж. Ш., & Баратов, С. С. (2014). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛИНИСТОЙ ВОДЫ ПРИ КАПЕЛЬНОМ ОРОШЕНИИ. The Way of Science, (4), 77.
20. Fazliyev, J. EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING «ИНТЕРНАУКА» Science Journal № 21 (103) June 2019 г.